
"1-Besh bola" mahallasida ham ichki yo'llar asfalt qilinmoqda

Farg'ona shahridagi "1-Besh bola" mahalla fuqarolar yig'inida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan 4 kilometr ichki yo'llarni asfalt qilish ishlari boshlandi.

Hozirda yo'lsozlar tomonidan ichki yo'llarni asfaltlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 2 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Yillar davomida yozda chang, qishda loy bo'lgan ko'chalarning sifatli tarzda asfoltlanishi aholini behad quvontirmoqda. Keksa-yu yosh o'z minnatdorchiligini bildirishmoqda.

2023-04-10 11:36:08